

**“O’ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING
RIVOJLANISHI”**

Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Amaliy psixologiya yo’nalishi

2-bosqich talabasi

Rahimboyev Sherzod O’ktamboy o’g’li

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya fanining yurtimizda rivojlanishi va uning istiqbollari haqida so’z boradi, O’zbekistonda so’ngi yillarda psixologiya fanining jadallik bilan rivojlanayotganligi, ko’plab psixologiyaga doir bo’lgan darsliklar, o’quv-qo’llanmalar chop etiliyoganligi haqida. Psixologik tadqiqotlar barcha jabxalarda o’tkazilmoqda va bugungi kunda psixologiya fanining o’rnini juda ham katta axamiyatga egadir.

Kalit so’zlar: Ta’lim-tarbiya, psixologik, xususiyatlar, psixologik tadqiqotlar, ijtimoiy psixologiya, mutaxasis.

O’zbekiston Respublikasida ta’lim -tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan tub isloxtlarning samarasi, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, mutaxasislarni tayyorlashdan iborat. Shundan kelib chiqib bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim jarayonida psixologik xususiyatlari inobatga olgan holda, ta’lim berishiga qaratilayotganligidan kelib chiqib ushbu mavzu o’rganishga qaratilgan. XXI asr bo’sag’asida juda ko’plab davlatlarda bo’lgani kabi dunyo xaritasida munosib o’rin olgan mustaqil O’zbekistonda ham barcha sohalarda tub isloxtolar boshlandi. Bu isloxtlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko’tarib, inson va uning mukammalligi, o’z ustida ishlashi, o’z mukammalligi hususida qayg’urish muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kyolganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'limgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan.[1.175] Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir. [2. 312]

Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruuhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovaning o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1987), E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), E. No'monovning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustyanovkalarning xususiyatlariga bag'ishlangan, M.Zokirovaning erkak va ayollardagi rollar hakidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga

qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin keljakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.[4. 210]

O'zbekistonda psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruuhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruahlarga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim. YA'ni, ishlab chikarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruuhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z echimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalananilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologianing yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, «buyukshunoslik» psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi, mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi, tashqi ko'rinish psixologiyasi, oliy mакtab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdo-sotiq psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo'rquv psixologiyasi, o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda.[5. 234]

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqeい o'ziga xos va etakchidir.

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiylar qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlar sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiylar qonuniyatlarini izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda.[6. 176]

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan. «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari etarli bo'lmaydi. SHuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongingina ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bolatomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechoglik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan

uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniksa, ma'navi y barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan xolda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda shaxsga ta'lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan xolda, unga pedagogik ta'sir etish va uni yangi bilimlarga yo'naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамова, Г.С. Практическая психология: учебное пособие. Москва : Прометей, 2018..
2. S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y..
3. Nishanova, Zamira Taskarayevna. Psixiogik maslahat: o 'q u v qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o 'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. - N 4 toplam.
4. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология” – Ташкент 2014.
5. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.